

**SO'Z ERKINLIGINI TAKOMILLASHTIRISH UCHUN
YURTIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR**

Omonova Mohinur Bahodir qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi
yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA: *Ushbu tezisdagi insonning ajralmas huquqlaridan biri bo'lgan so'z erkinligini O'zbekistonda takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan keng ko'lamlil ishlar va ularning samaradorligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman, AOKA, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi.*

АННОТАЦИЯ: *В данной диссертации освещаются широкомасштабные работы и их эффективность в Узбекистане по улучшению свободы слова, которая является одним из неотъемлемых прав человека.*

Ключевые слова: *Уполномоченный по правам человека, АОКА, Союз журналистов Узбекистана, Стратегия действий на 2017-2021 годы.*

ANNOTATION: *In this thesis, the wide-scale works and their effectiveness are highlighted in Uzbekistan in order to improve the freedom of speech, which is one of the inalienable human rights.*

Keywords: *Human Rights Representative Ombudsman, AOKA, Union of Journalists of Uzbekistan, Action Strategy for 2017-2021.*

So'z erkinligini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishilgach bosqichma bosqich ishlar olib borilmoqda. Avvalo yurtimiz inson huquqlari kafolatlanadigan xalqaro hujjatlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va yana BMTning 7ta hujjatiga qo'shildi. Ikkinchidan, inson huquqlarini, so'z erkinligini himoya qiluvchi institutlar, xususan Inson

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

huquqlari bo'yicha Ombudsman va Inson huquqlari milliy markazi tashkil etildi. OAVni rivojlantirish maqsadida hamda jurnalistlarni himoya qilish maqsadida AOKA, jurnalistlar uyushmasi tuzildi. Quyida har bir tashkilot haqida batafsil ma'lumot berib o'tilgan:

MDH davlatlaridan birinchilardan bo'lib O'zbekistonda 1995-yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman tashkil etilgan. 1997-yil 24- aprelda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 8-sessiyasida "Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Keyinchalik mazkur hujjat takomillashtirilib, yangi tahrirda 2017-yilda qabul qilindi¹.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha Milliy markazini tuzish to'g'risidagi 1996-yilgi² prezident farmoniga ko'ra amalga oshirilgan. Aynan mazkur yilda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz o'z faoliyatini boshlaydi. Ularning vakolatlari, vakolat ko'lami har xil, ushbu institutlarning ikkisi ham inson huquqlari, jumladan ajralmas huquq bo'lmish so'z, fikr, matbuot erkinligini ham himoya qiladi.

Ikkala institut ham yilda bir marta mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishda qilingan ishlar bo'yicha hisobot beradi.

So'z erkinligining rivoji bevosita matbuot, jurnalistlarning erkinliklari bilan bog'liq. Yurtimizda matbuot, jurnalistika, telekommunikatsiyasi rivojlantirish uchun bir qancha agentlik va uyushmalar tashkil etilgan. Ulardan biri AOKA hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151 sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan³.

Shuningdek, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi to'g'risidagi

¹ Ombudsman//<https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>

² O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha Milliy markazini tuzish to'g'risidagi prezident farmoni//<https://lex.uz/docs/-177741>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151 sonli Qarori// <https://lex.uz/docs/-418851>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Nizom ham mavjud bo'lib, unda AOKAning vazifalari, huquq hamda majburiyatlari, agentlik rahbariyati, qaysi tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi haqidagi batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekistonda jurnalistlarning sha'ni, qadr-qimmatini himoya qiluvchi yana bir tashkilot bu - Jurnalistlar uyushmasi hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida⁴gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-iyun 2022-yildagi PQ-294-sonli Qaroriga ko'ra⁴ O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi deb qayta nomlangan. Avvalroq O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi nomi ostida faoliyat yuritardi.

Mazkur qarorga ko'ra "2022-2026 yillar mobaynida ommaviy axborot vositalarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni bajarish, shuningdek, jurnalistika sohasini yanada takomillashtirish, jurnalistlar faoliyati uchun rag'batlantirish, yetuk jurnalist kadrlarni shakllantirish vazifalari qo'yilgan. Mana shu milliy institutlar faoliyati, bosqichma-qosqich amalga oshirilayotgan strategiyalar yurtimizda axborotni, jurnalistlar erkini, so'z, fikr, matbuot erkinligini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan strategiyalarda ham so'z erkinligiga, matbuot, ommaviy axborot vositalari rivojiga alohida ahamiyat qaratilib, bu sohalarni takomillashtirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Bu kabi strategiyalar qatoriga 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini misol qilib olishimiz mumkin. Ikkala strategiyaning maqsadlari doirasida so'z erkinligi bilan chambarchas bog'liq OAVni rivojlantirish masalalari, jurnalistlarni ijtimoiy hayotdagi rolini oshirish va himoyasini shakllantirishga oid maqsadlar o'rin olgan.

Bundan tashqari Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan 10-dekabr xalqaro inson huquqlari kuni deb e'tirof etilgan. Ko'p yillardan beri ushbu xalqaro hujjat qabul qilinganligi xalqaro miqyosda nishonlanib kelmoqda.

⁴Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida⁴gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// <https://lex.uz/docs/-6083381>
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xususan O'zbekistonda ham bu tarixiy voqea nishonlanishiga qizg'in tayyorgarlik ko'riladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 12-may 2023-yilda⁵ qabul qilingan. Unga ko'ra inson huquqlarini yurtimizda yanada targ'ib qilish uchun maqsad, vazifalar belgilanib, amalga oshirildi. Bu kabi farmonlar yurtimizda inson huquqlari rivoji uchun qanchalik ahamiyat qaratilishining yana bir isbotidir.

To'rtinchidan, inson huquqlari kuni munosabati bilan xalqaro delegatsiyalar uchrashuvi ham bo'lib turadi. Bu kabi xorijiy davlatlar bilan so'z erkinligi, OAV rivoji bo'yicha fikr almashilishi, o'zaro hujjatlar qabul qilinishi bu soha rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda. Mana shunday uchrashuvlardan biri Markaziy Osiyo mintaqasida so'z erkinligi deb nomlanib 2022-yil dekabr oyida o'tkazilgan. Unda Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi, AQShning elchixonasi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston ommaviy axborot vositalari vakillari Milliy ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi ishtirok etdi. Tadbir ishtirokchilari Markaziy Osiyo mamlakatlarida so'z erkinligining bugungi ahvolini muhokama qilish, uning tendensiyalarini aniqlash, prognoz qilish, jurnalistlarning kasbiy huquqlarini har tomonlama himoya qilish, internet tarmog'ini tartibga solish ko'rib chiqildi. Shuningdek bloggerlar faoliyati, internet tarmog'iga kirish, ommaviy axborot - ochiq va shaxsiy ma'lumotlar almashinuvi, davlat organlarining ochiqligi kabi masalalar bo'yicha fikr almashildi va atroflicha yechim topildi. Shu bilan bigalikda tadbir davomida Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Dinamik muhitlar uchun turli ma'lumotlarga chidamlilik va hamkorlik" loyihasi ishga tushirildi. Ushbu dasturning maqsadi Markaziy Osiyodagi odamlarga ongli qarorlar qabul qilish va auditoriyani yaratish imkonini beruvchi yuqori sifatli axborotni taqdim etish orqali mustaqil ovozlarni mustahkamlashga qaratilgan.

⁵ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.// <https://lex.uz/ru/docs/-6464217>
www.tadqiqotlar.uz

1. Ombudsman//<https://ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>
2. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha Milliy markazini tuzish to'g'risidagi prezident farmoni.//<https://lex.uz/docs/-177741>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151 sonli Qarori.// <https://lex.uz/docs/-4188851>
4. Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// <https://lex.uz/docs/-6083381>
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.// <https://lex.uz/ru/docs/-6464217>